

## **O`SIMLIKLAR INSONIYAT NAJOTKORI**

**Andijon viloyati Oltinko`l tumani**

**4 -sonli umumta`lim maktab biologiya fani**

**o`qtuvchisi Baxriddinova Feruza**

**Annotatsiya.** Maqolada o`simliklar dunyosini inson hayotidagi o`rni, ahamiyati hamda foydali o`simliklar haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** madaniy o`simliklar, ekologiya, hayvonot olimi, agrotexnika va qishloq xo`jaligi.

**Аннотация.** И статье описывается мир растений, их значение, а также сведения о полезных растениях.

**Ключевые слова:** культурные растения, экология, царство животных, агротехника и сельское хозяйство.

**Annotation.** The article provides information about the role of flora in human life, its importance, and useful plants.

**Keywords:** cultivated plants, ecology, the animal world, agricultural technician and agriculture.

O`simlik bu- o`zini o`zi qayta tiklashi mumkin bo`lgan tabiiy resurs hisoblanib, yer yuzasining deyarli barcha qismida o`sadi. Yer yuzining joylashishi yoki iqlim sharoitiga qarab turli joylarda turli hil tarqalgan va moslashgan.

O`simliklar necha ming yillardirki insoniyatda shifobaxshligi, iste`mol manbai ekanligi bilan qiziqish uyg`otadi. O`tmishda odamlar yovviiy ekinlarni o`zlari uchun foydali deb bilganlarini uylari atrofiga ekib o`stirishi natijasida dastlabki madaniy ekinlar honakilashtirilgan. Inson o`zi bilmasdan o`simliklarni seleksiyasiga ta`sir ko`rsatgan. Kundalik ratsion tarkibidagi oddiy ko`katlar ham inson organizmi uchun foydali bo`lgan mikro va makro elementlar, vitaminlar va mineral tuzlar bilan ta`minlaydi. Hozirgi texnologiya davrida yilning hamma

faslida foydali mahsulotlarni bozor rastalarida uchratish mumkin. O`simliklar nafaqat inson iste`moli uchun foydali balki atrof -muhit tozaligi uchun ham muhim ya`ni ular atmosfera havosidan karbonat angidirini yutub o`zidan kislorod ishlab chiqarib havoni tozalashda faol ishtirok etadi.

Hozirda o`simliklarning 300 mingdan ziyon turlari aniqlangan bo`lsa shulardan kundalik extiyojlarga faqat 600 ming turidan foydalaniladi, dorivor xususiyatga ega bo`lgan o`simliklar turlarini esa 1500 mingdan ziyodi xalq tabobatida, kasmetika sanoatida, texnika xom ashyosi, qurush va boshqa sohalarda ishlatiladi. Shuningdek o`simliklar chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi.

Qishloq xo`jaligida o`simliklar quyidagicha guruhlanadi: madaniy o`simliklar, yovvoyi yoki begona o`tlar, texnik ekinlar hamda dorivor ekinlar.

Madaniy ekinlar bu – qishloq xo`jaligida ekin maydonlariga foyda olish maqsadida ekilgan o`simliklar. Bularga barcha iste`mol qilinadigan o`simliklar: pomidor, karam, piyoz, kashnich, sholg`om, bug`doy, makkajo`hori va boshqalar kiradi.

Yovvoyi o`simliklarga bu- madaniy ekinlar orasida, yo`l yoqalarida, cho`l, o`rmon va to`qaylarda mustaqil tarzda o`sadigan o`simliklar kiradi. Masalan, g`umay, kurmak, ajriq, hilol, pechka, qamish va boshqalar.

Texnik ekinlar bu – sanoatda xosh ashyo sifatida ishlatilib, qayta ishlanadigan o`simliklar kiradi. Bularga : kartoshka, go`za, shakarqamish, qand lavlagi, kanop, zig`ir, kanakunjut, yer yong`oq, soya va boshqalar.

Dorivor ekinlarga – xalq tabobatida hamda dori-darmon sanoatida foydalaniladigan o`simliklar: amarant, isriq, rayhon, na`matak, g`azanda, rovosh, qoqi o`t, zira va boshqalar.

Shuningdek o`simliklarni kamyob yo`qolib ketish xavfi ostida bo`lgan turlar ham mavjud, chunki bunday o`simliklar antopogen omillar ta`sirida yoki evolutsiya natijasida iqlim sharoitlariga moslasha olmagan o`simliklardir. Bunday o`simliklarni muhofaza qilish maqsadida butun jahonda shuningdek O`zbekistonda ham Qizil kitob joriy qilingan.

Xulosa, o`simliklar inson hayotining ajralmas bir bo`lagi undan oqilona foydalanish esa insonning burchidir. Noyob hamda yo`qolib ketayotgan o`simliklarni muhofaza qilish ular sonini ko`payishida o`z xissamizni qo`shishimiz kerak, zero bu yer, ona zamin barcha mahsulotlari, ne`matlari bilan bizdan keyingi avlodlarning ham xaqqidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O`.Pratov Biologiya, botanika 6 sinf T.2017
- 2.A.G`afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxonova. Biologiya T.2018
- 3.Sh.Xalillaev. Biologiya T.2017
- 4.F.Bafojev. Biologiya va genetika. Universal qo`llanma.T.2021
- 5.Ya.I.Ametov, Z.O.Bekbergenova, Biologiya, Ekologiya. O`quv-metodik qo`llanmalar. T.2018